

## INSON RESURSLARINI BOSHQARISHNING ELEKTRON TIZIMLARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

**G‘aniyev Shaxzod Shuhrat o‘g‘li**

Qarshi davlat universiteti

“Inson resurslarini boshqarish” yo‘nalishi magistri

**Email:** [shaxzodganiyev46@gmail.com](mailto:shaxzodganiyev46@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Maqolada O‘zbekistonda inson resurslarini boshqarishning elektron tizimlarining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Inson resurslarini boshqarishda innovatsiyalar va raqamli texnologiyalardan foydalanish yo‘nalishlari izohlanilib bu boradagi xulosa va izlanishlar haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Raqamlashtirish, HRM (Human resource management), internet-banking, elektron xizmatlar, elektron mahsulotlar, Inson resurslarini boshqarish tizimlarini raqamlashtirish, elektron hukumat, axborot-kommunikatsiya, Inson resurslarini boshqarish tizimi (HRMS), xodimlar faoliyatini baholash tizimi (KPI), bulutli texnologiya.

### THE ROLE AND IMPORTANCE OF ELECTRONIC SYSTEMS OF HUMAN RESOURCE MANAGEMENT IN UZBEKISTAN

#### ABSTRACT

The article analyzes the role and importance of electronic human resource management systems in Uzbekistan. Innovations in the management of human resources and the use of digital technologies are explained, conclusions and research are discussed.

**Keywords:** Digitization, HRM (Human resource management), internet-banking, electronic services, electronic products, digitization of human resource management systems, e-government, information and communication, Human resource management system (HRMS), personnel performance evaluation system (KPI), cloud technology.

Jahon tajribasidan ma'lumki, barcha sohalarda bo'lgani kabi HRM (Human resource management) yo'nalishida ham hozirgi kunda an'anaviy tizimdan voz kechilib, raqamlashtirilgan tizimga o'tilmoqda. Umuman olganda sohalarni raqamlashtirish nima uchun zarur? Demak buni anglash uchun eng boshidan tushunib olishimiz lozim. **Raqamlashtirish** bu – hayotning turli sohalariga, jumladan iqtisodiyot, ta'limning barcha bosqichlari, madaniyat, tibbiyot, turizm, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish va boshqa jarayonlarga raqamli texnologiyalarni joriy qilishdir.<sup>1</sup>

Xalqaro amaliyotga yuzlanadigan bo'lsak, hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot elektron tijorat va xizmatlar sohasi bilan cheklanib qolmay, balki hayotning har bir jabhasiga, xususan, sog'liqni saqlash, fan-ta'lim, qurilish, energetika, qishloq va suv xo'jaligi, transport, geologiya, kadastr, arxiv, internet-banking va boshqa sohalarga jadal kirib bormoqda va ularning har birida o'zining yuqori samaralarini bermoqda. Davlat o'z fuqarolari uchun elektron xizmatlar ko'rsatishi va elektron mahsulotlarni taklif etishi — bu raqamli iqtisodiyotning asosiy qismi hisoblanadi. Mamlakatimizda ushbu sohani keng rivojlantirish korrupsiya illatiga barham beradi.

Inson resurslarini boshqarish tizimlarini raqamlashtirish iqtisodiyot tarmoqlari va davlat boshqaruvi tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish va telekommunikatsiya tarmoqlarini kengaytirish orqali respublika iqtisodiyotining raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadida 2020-yil 28-aprelda “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4699-sonli qarori<sup>2</sup> qabul qilindi. Qarorning 6-ilovasida 2020-2022-yillarda

<sup>1</sup> Raqamli iqtisodiyotga oid so'z va atamalarni bilasizmi? -maqola, <https://mitc.uz/uz/news/1554> sayti, Nurulla Abdullayev, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri maslahatchisi  
<sup>2</sup> <https://lex.uz/docs/-4800657> - O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi

iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish bo'yicha ustuvor loyihalar ro'yxatiga **Inson resurslarini boshqarish tizimi (HRMS)**ni hamda xodimlar faoliyatini baholash tizimi (**KPI**)ni joriy etish vazifasi qo'yilgan. HRMS - bu xodimlarni boshqarish tizimi. Ushbu tizim kompaniyalar o'zlarining ichki HR funksiyalarini boshqarish uchun foydalanadigan dasturlar to'plamini o'z ichiga oladi. Xodimlar ma'lumotlarini boshqarishdan ish haqi, ishga olish, imtiyozlarni boshqarish, o'qitish, HR boshqaruvi, xodimlarni jalb qilish va ishga qatnashish kabi vazifalarni bajaruvchi HRMS dasturi HR mutaxassislariga iste'dodlarni boshqarish bo'yicha keng ko'lamli faoliyatni amalga oshirishga yordam beradi. HRMS tizimlari, shuningdek, Inson Resurslari Axborot Tizimlari (HRIS) deb ham ataladi, chunki ular kompaniyaning eng qimmatli resurslari haqidagi barcha ma'lumotlarni ularga muhtoj bo'lgan odamlarga taqdim etadi. Kechagi **HR** va **HRIS** tizimlari bugungi kunda inson kapitalini boshqarish uchun **bulutli texnologiyaga** asoslangan yechimlarga aylanmoqda. Xulosa qilib shuni aytish joizki, inson resurslarini boshqarishning elektron tizimlarini yurtimizda keng joriy etilishi korrupsiya illatiga barham beradi, davlat xizmatchilari hamda fuqarolarning vaqtini tejaydi, ortiqcha ovvoragarchiliklar, sarsongarchiliklarning oldi olinadi, davlat budjeti uchun ham ortiqcha sarf-xarajatlarning kamayishiga hissa qo'shadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Inson resurslarini boshqarish - A.B.Xayitov, darslik, Toshkent – 2019 yil, 7-bet
2. “Personalni boshqarish” fanidan ma’ruzalar matni, TMI, Toshkent, 2013-yil
3. Управление персоналом / Под ред. А.Я. Кибанова. М., 2008
4. Назарова Г.Г., Мухамеджанова Г.А., Салихова Н.М., Исмаилова Н.С., Розметова Н.Б. “ИНСОН РЕСУРСЛАРИ МЕНЕЖМЕНТИ” (ўқув қўлланма) Тошкент – 2010.
5. <https://lex.uz> O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi
6. <https://mitc.uz/uz/news/1554> sayti, maqola, Raqamli iqtisodiyotga oid so‘z va atamalarni bilasizmi? Nurulla Abdullayev, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri maslahatchisi